

SINGAPUR XALQARO ARBITRAJ MARKAZI

Anvarov Asilbek Azizbek o'gli

Annotatsiya: Bizning davrimizda nizolarni arbitraj institutida hal qilish rivojlangan. Biz maqolada nufuzli xalqaro arbitrajlardan biri singapur xalqaro arbitraj markazi haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Singapur xalqaro arbitraj markazi, tijorat, huquqiy nizo, UNCITRAL qoidalari

Hozirgi kunda tijorat sohasida xalqaro munosabatlar juda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda tijorat sohasida faoliyat olib boruvchi subyektlar juda ko'p. O'zbekiston sharoitida ham mahsulotlar yoki tovarlarni chet elga eksport yoki import qilish juda ko'paymoqda. Shuningdek, boshqa tijoriy sohalarda chet ellik subyektlar bilan o'zaro hamkorlik qilmoqdalar. Bunday holda taraflar o'z munosabatlarini shartnomalar asosida shakllantirmoqda. Taraflardan biri shartnoma shartlarini bajarmasa, xususan, mahsulotni vaqtida yetkazib bermaslik, mahsulotga haq to'lamaslik natijasida shartnoma buzilishi yuzaga keladi. Natijada taraflar o'rtasida nizo yuzaga kelmoqda. Agar bu nizoni qaysidir rezidentning milliy sudda ko'rish kerak bo'lsa, norezident bo'lgan taraf buni unchalik ham xushlamasligi mumkin. Sababi norezident bo'lgan taraf resident bo'lgan taraf rezidenti milliy sudining xolisligiga, neytralligi ishonchi mavjud bo'lmaydi. Shu munosabatdan hozir nizolarni davlatniki bo'lmagan, xususiy va neytral arbitrajda ko'rish taraflar uchun maq'ul kelishi mumkin. Nizolarni arbitrajda ko'rishda taraflar o'zaro tijoriy soha uchun tuzgan shartnomasida arbitraj bandi yoki arbitraj izohini keltirib o'tishlari, yoki bo'lmasa alohida arbitraj bitimi imzolashlari lozim.

Shu holatda taraflar nizoni singapur xalqaro arbitraj markazini nizoni hal qilish uchun tanlashlari mumkin.

Singapur xalqaro arbitraj markazining tarixi

Singapur xalqaro arbitraj markazi (SXAM) ni tuzish 1990 yil mart oyida Iqtisodiy rivojlanish kengashi va Savdoni rivojlantirish kengashi tashkil etish harakatlari boshlangan. SXAMni tashkil etishga Iqtisodiy qo'mitaning tijorat nizolarini ko'rib chiqishni tezlashtirish uchun bergan tavsiyasi asos bo'lgan edi. SXAM 1991 yil iyul oyida Singapurni mintaqaviy va xalqaro tijorat arbitraji markaziga aylantirish maqsadi bilan o'z ishini boshladi.

Singapur xalqaro arbitraj markazining faoliyati

Singapur xalqaro arbitraj markazi mustaqil va foyda olishni maqsad qilmagan tashkilot hisoblanadi.

SXAM qarorlari ko'plab yurisdiksiyalarda jumladan, Avstarliya, Xitoy, Gong kong, Hindiston, Indoneziya, Iordaniya, Tailand, Buyuk Britaniya, AQSh va Vyetnamda shuningdek NYU-York Konvensiyasini imzolagan boshqa davlatlar hududlarida kuchga kirgan.

Qoida tariqasida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, SXAM asosan tijoriy nizolarni, qurilish sanoati, yuk tashish, savdo va sug'urta sohalari bilan bog'liq ishlarni ko'radi.

Odatda bitta sudyadan iborat hakamlik sudi tomonidan hal qilish ishning murakkabligiga qarab 9 oydan 12 oygacha davom etadi. Agar uchta sudya bo'lsa, qaror biroz ko'proq qabul qilinadi: 12 oydan 18 oygacha.

Arbitraj ingliz tilida olib boriladi, lekin Kotibiyat ko'plab tillarni, jumladan, xitoy, koreys, frantsuz, hind va malay tillarini yaxshi biladigan xodimlardan iborat

Singapur xalqaro arbitraj markazidagi narxlar

Boshqa xalqaro arbitrajlarda bo'lgani kabi, eng katta xarajat komponenti odatda yuridik to'lovlardan iborat. Singapur arbitraj markazida ish qo'zg'atish haqi Singapur rezidentlari uchun 2 140 Singapur dollari va norezidentlar uchun 2000 Singapur dollari, bu boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha arzon.

Hakamlik ish haqi nizo summasiga muvofiq o'sib boradi. Masalan, SXAM qoidalariga muvofiq 50000 Singapur dollarigacha bo'lgan nizolarda 6250 Singapur dollari hisoblanadi. Adminstrativ to'lovlar ham shunday ya'ni nizo summasidan kelib chiqib hisoblanadi. Masalan, 50000 Singapur dollarigacha bo'lgan nizo uchun adminstrativ to'lovlar 3800 Singapur dollari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Singapur bugungi kunda tijorat nizolarini tez, arzon, samarali va adolatli hal qilish uchun ko'plab vositalarni taqdim etadi. Singapur sudlari hurmat va ishonchga ega, buning isboti yildan-yilga ular tomonidan ko'rilgan ishlar soni tobora ortib bormoqda.

Singapur xalqaro arbitraj markazining qoidalari

Arbitraj markazi tashkil etilishi bilan o'z ish yurituvchi uchun qoidalarni qabul qilgan edi. 1991-yilgi SXAM arbitraj qoidalari UNCITRAL Arbitrajining 1976 yilgi qoidalari va 1985 yilgi Xalqaro arbitraj bo'yicha London sudining qoidalariga moslashtirilgan edi. SXAMning arbitraj qoidalari hozirgi kunga qadar 6 marta nashr qilingan bo'lib oxirgisi 2016-yil edi.

SXAM qoidalari samarali, tejamkor va moslashuvchan bo'lib, fuqarolik va umumiy huquq huquqiy tizimlarining xususiyatlarini o'z ichiga oladi. E'tiborli jihati shuki arbitraj markazining rasmiy saytida Arbitraj markazi qoidalarining o'zbek tilidagi versiyasi mavjud.

Arbitraj markazi qoidalari 41ta moddadan iborat. Shuningdek, turli xil masalalar yuzasidan nizomlar mavjud. Arbitraj markazining qoidalarida asosan, arbitraj ishini olib borishning protsessual jihatlari yoritilgan.

Singapur xalqaro arbitraj markazining afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlari

Arbitraj markazi global istiqbolga ega xalqaro tashkilot bo'lib:

- SXAM dunyodagi eng yaxshi 5 arbitraj institutlaridan biri va Osiyo-Tinch okeanida Gong-Kong tijorat arbitrajidan so'ng eng ko'p afzal ko'rilgan arbitraj institutidir.
- Arbitraj markazining ishlarni boshqarish xizmatlari xalqaro miqyosda taniqli arbitraj amaliyotchilaridan iborat Arbitraj sudi tomonidan nazorat qilinadi.
- Arbitraj markazi Direktorlar Kengashi butun dunyodan obro'li huquqshunoslar va mutaxassislardan iborat. Kengash SXAM faoliyatini, biznes strategiyasini va rivojlanishini, shuningdek, korporativ boshqaruv masalalarini nazorat qilish uchun javobgardir.
- Arbitraj markazida 40 dan ortiq yurisdiksiyalardan 500 dan ortiq ekspert hakamlaridan iborat tajribali xalqaro hay'atga ega.
- Arbitraj markazi guruhida 25 dan ortiq yurisdiksiyadan energetika, muhandislik, xaridlar va qurilish sohalarida 100 dan ortiq tajribali hakamlar mavjud.
- Arbitraj markazining ko'p millatli kotibiyati fuqarolik va umumiy huquq yurisdiksiyalarida malakali tajribali yuristlarni o'z ichiga oladi.
- Arbitraj markaziga qo'yilgan yangi ishlarning 90% dan ortig'i xalqaro xarakterga ega.
- Arbitraj markazi nizolarni samarali hal qilishga yordam beradi.
- Arbitraj markazining qoidalari turli huquqiy tizimlar va madaniyatlarga mansub tomonlar ishtirokidagi barcha o'lchamdagi va murakkablikdagi xalqaro nizolarni samarali, ekspert va majburiy tarzda hal qilish uchun eng zamonaviy protsessual asosni taqdim etadi.
- Arbitraj markazi qoidalari, UNCITRAL qoidalari va ad hoc holatlar bo'yicha tomonlar kelisha olmasalar, institut arbitrlarni tayinlaydi. Tayinlashlar arbitrning tajribasi, atributlari va ish tajribasi to'g'risidagi bizning mutaxassis bilimlarimiz asosida amalga oshiriladi
- Arbitraj markazi hakamlar kengashiga qabul qilishning qat'iy standartlari mavjud, bu esa qiyinchiliklar va kechikishlar xavfini kamaytiradi.
- Institutning to'liq vaqtli xodimlari arbitrajning barcha moliyaviy jihatlarini boshqaradi, jumladan: Institutning nashr etilgan ko'rsatmalarga muvofiq ishni shaffof moliyaviy boshqarishi qonuniy vakillarga o'z mijozlariga hakamlar jarayonining har bir bosqichi uchun aniq xarajatlar prognozlarini, muddatlari va xarajatlarini taqdim etish imkonini beradi.
- Institut ishning borishini nazorat qiladi va kuzatib boradi.
- Institut arbitraj qarorini tekshiradi, shuning uchun ijro etish bilan bog'liq muammolar kamroq bo'ladi.

-Arbitraj markazining ning ma'muriy to'lovlari barcha yirik xalqaro arbitraj institutlari bilan solishtirganda raqobatbardoshdir.

Arbitraj markazi faoliyati raqamlarda

Statistik ma'lumotlarga ko'ra Singapur xalqaro arbitraj markazi 1993-yilda 15 ta, 2000-yilda 58 ta, 2005-yilda 74 ta, 2010-yilda 197 ta, 2015-yilda 271 ta, 2018-yilda 402 ta ish ko'rgan. Shuningdek, 2005-yildan 2015-yilga qadar Singapur xalqaro arbitraj markazining ish hajmi deyarli 400% ga o'sgan.

Bu ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, arbitraj markazi nizolarni hal qilishda muntazam o'sib borgan.

Umumiy ma'noda shuni aytish mumkinki, Singapur xalqaro arbitraj markazi nizolarni hal qiluvchi arbitraj sifatida xalqaro hamjamiyatda yetakchi o'rin tutadi. Yuqoridagi raqamlardan ham ma'lumki arbitrajga bo'lgan ishonch doimiy ravishda o'sib borgan va arbitraj bu ishonchni oqlagan.

Xulosa: Yuqoridagi keltirib o'tgan ma'lumotlarimizdan kelib chiqib taraflar tijoriy sohada, xususan, tijoriy nizolar, qurilish sanoati, yuk tashish, savdo va sug'urta sohalarida yuzaga keladigan nizolarda bemaolol ushbu arbitraj markaziga murojaat qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Margaret L. Moses The principles and practice of International Commercial Arbitration
2. Siac.org.sg